

“VATAN BILAN ULG‘AYAR SHON-SHAVKATIMIZ”

Ergasheva Muxlisa Abdulla qizi

Termiz davlat pedagogika instituti,
Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi II bosqich
talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada yurt ravnaqi, uning kelajagi, har jahbada o‘zgarib borayotgan taraqqiyoti va uni asrab-avaylayotgan botir og‘lonlarimiz uyqusiz tunlarining asl mohiyati, ertangi kunimiz uchun olib borilayotgan islohotlar negizi, eng asosiysi vatan ravnaqi el shon-shavkati eknaligi haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Respublika, taraqqiyot, komil inson, insonparvar, Qurolli kuchlar, tantanali, abadiylashtirmoq, ajdodlar, zamonaviy va boshqalar.

Shavkat Miromonovich Mirziyoyev o ‘z nutqida:Barchamiz uchun vatan bitta. Bizni yagona, ulug‘ bir maqsad birlashtiradi”-degan edilar. Ushbu fikrlar ostida olam-olam ma’no va mazmun bor. Zero, el qanchalik rivojlanib boraversa uning kelajagi, xalqi, el-yurti ham undagi avlodlar ham shu qadar yuksaladi.

Vatan-muqaddas dargoh mo‘jizali maskanlari bilan yuraklarga jo bo‘lgan, har qarich yeri-yu kaftdek tuprog‘i zar, ko ‘zga gavhardir. U o‘z ichindagi, qalbidagi avlod-ajdodlarga misli qimmatli ko‘hinur kabi ardoqli va azizdir. Insoniyat olami bor ekan undagi yurak doim har qadamda “Vatan” deya uradi. Qalblarning taskini, ko‘zlarning nuri, xalqning kelajagi vatan tinchligi bilan uzviy bog‘liqdir. Dunyo ichinda dunyo bo‘lgan insonlar ma’naviyati yuksak, qalbi iyomon nuri ila yoritilgan, vatanparvarlikni ich-ichidan his etgan, Vatanni asrash eng oliy maqsadi ekanligini anglagan, uning yutuqlari, shon-shavkati yurti, millati bilan chambarchas tarzda ulg‘ayishini

bilgandagina yurt yurt bo‘ladi, har jabhada tinimsiz bo‘y cho‘zadi, dilni xushnud etuvchi yurt madhi yangraydi.

Jamiyatni, vatanni rivojlantirish,davlatni mustahkamlashda, uni avaylab asrashda milliy g‘oyaning o‘rni beqiyosdir. Zotan, Bugun eng qudratli deya e’tirof etilgan AQSh, Angliya, Germaniya, Xitoy, Rossiya kabi davlatlar siyosati ham milliy g‘oya ustida qurilgan. Shu asnoda Prezidentimiz bugungi kunda eng global darajaga olib chiqayotgan vatanparvarlik, avvalo, oiladan, maktabdan har kuni muomala qiladigan tildan ozuqa oladi. Ze’ro vatanparvarlikni yoshlarga singdirishda ma’naviyat, axloqodob, ma’rifat kabi olmosga teng qadriyatlarga suyanmoq kerak. Mana shu kuchlar uyg‘unligida xalqimiz asrlar davomida hamisha o‘zligini, borliqdagi o‘rnini, ertangi kuni rejalarini oldindan ko‘ra bilgan. Mustaqillik yillaridan so‘ng Respublikamizda vatanni har tarafdan qo‘riqlash, uni himoya qilish sarhadlarini avaylab-asrash, tinchlik-totuvlik xalq ravnaqi kabi tushunchalar kuchga kirdi va qat’iyat asosida yuksaldi. Shu kunlarda mamlakatimizda “Vatan himoyachilari”kuni va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari tashkil etilganining 30 yilligi keng nishonlanish arafasida. Yurt himoyachilarining behimmat xizmatllari, uyqusiz tunlari, jondan kechin xizmat qilishlari beqiyos baholanmoqda. 1991 yil 6 sentyabrdagi «Mudofaa ishlari vazirligini tashkil etish to‘g‘risida» gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni sohaning ilk poydevori sanaladi. 1992 yil 3 iyul kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa ishlari vazirligi O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligiga aylantirildi. 1992 yilning 14 yanvar kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining «O‘zbekiston Respublikasi xududida joylashgan harbiy qismlar va harbiy o‘quv muassasalari to‘g‘risida»gi qarori juda muhim tarixiy ahamiyatga egadir. Mazkur qarorga ko‘ra davlatimiz hududidagi harbiy tuzilmalar respublika tasarrufiga olindi. 1993 yil 29 dekabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining qarori bilan «14 yanvar – Vatan himoyachilari kuni» deb belgilandi. Vatan himoyachilari kunini nafaqat harbiy xizmatchilar, balki ayni vaqtida armiya saflarida o‘z burchini o‘tab qaytgan vatandoshlarimiz va ertaga xizmatga boradigan ming-minglab navqiron yigitlarning

bayrami, deb qabul qilingan. Ushbu bayram munosabati bilan har yili tantanali tadbirlar o'tkaziladi. Yurtimizda Qurolli kuchlarga katta e'tibor beriladi. **O'zbekiston respublikasi qurolli kuchlari** — O'zbekiston Respublikasi milliy manfaatlarini, suvereniteti, hududiy yaxlitligini hamda aholining tinch hayotini himoya qilish, urushlar va qurolli mojarolarni qaytarish va oldini olish uchun davlat tomonidan tashkil etilgan va saqlab turilgan harbiy birlashmalar, qo'shilmalar va qismlarni o'z ichiga oladi.

Ushbu qutlug‘ ayyom tom ma'noda nafaqat umumxalq bayramiga, balki azaldan xalqimizga xos bo‘lgan vatanparvarlik, mardlik va jasurlik kabi yuksak fazilatlar timsoliga aylanib borayotgani ham ayondir. Ze'ro, milliy armiyamiz kuch-quvvati, azm-u shijoatili va harbiyalarimizning bag‘ri keng va oliyjanob xalqimizning birligi va hamjihatliligidadir. Bu tushunchani, haqiqatni bugungi kunda har qachongidan ham chuqur his etmoqdamiz. Yurtimizda botir, chekinmas, qadamidan o‘q chaqnaydigan o‘z yelkasidagi ulug‘ ma’suliyatni betakror ado etayotgan, har jabhada o‘zini ko‘rsatayotgan botir, chinakam o‘glonlarimiz bor ekan millatimiz rivojlanishdan, dunyo yuzini ko‘rishdan, jahon hamjamiyati ichida o‘z o‘rnini topishdan aslo to‘xtamaydi. Yurtimiz tinch ekan biz yoshlarni is’tedodimiz gullaydi, shon-shavkatimiz yuksak cho‘qqilar sari yetaklaydi. Yurtdagi tinchlikning asosini Qurolli kuchlarimiz saflarida xizmat qilayotgan qo‘rqmas va fidokor ofitserlarning buyuk ma‘naviy, ma‘rifiy va jismoniy kuchiga tasannolar aytsak ham kam. Biz ular timsolida tog‘dek tayanch bo‘lib turgan so‘nmas kuchni ko‘ramiz. Yurtni, vatanparvarlikni, yurt quvonchi millat ko‘zgusi ekanligini yodga olar ekanmiz Qurolli kuchlarimiz sohibqiron Amir Temur bobomizning: “Millatning dardiga darmon bo‘lmoq-chin vazifangizdur”, -degan ezgu da’vatini shior qilgani yorqin dalildir. Yurtning kelajagi bo‘lgan yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni yet g ‘oyalardan uzoqda saqlash, o‘tmishni, ajdodlar merosini asrash, yurt kelajagi bizning kelajagimiz ekanligini anglatishimiz bugungi kunning dolzarb vazifasidir. Demak, maqsad-yosh avlodda Vatanimiz bilan faxrlanish, hech kimdan kam emaslik hissini shakllantirish, ularni obod va ozod yurtimizni, fidokor xalqimizning tinch hayotini asrash uchun

ma'suliyatni sezadigan qilib tarbiyalashdir. Bu borada barcha idora va tashkilotlar, o'quv yurtlari, mahallalar bilan chinakam keng qamrovli hamkorlikni yo'lga qo'ygan.

Xulosa o'mnida shuni aytamizki, inson qancha rivojlanmasin, ravnaq topmasin yurt, buyuk xalq, vatan qo'llab-quvvatlamasa, ishonch bildirmasa, vatan yuksalmasa, har qadamda mehrli ishonch jo'sh urmasa, tinchlik va totuvlik ruhidan zavqlanmasa, yurt mehrini his qilmasa ertangi kuni uchun mustahkam fondament yarata olmaydi, o'zini iqtidorini, qobiliyatini ochib bera olmaydi. Shunday ekan, vatan bilan shonshavkatimiz, kelajagimiz, borlig'imiz ulg'ayadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

- 1.I.A.Karimov "Barkamol Avlod".Toshkent.:1997
- 2.Sh.M.Mirziyoyev "Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilanbirga quramiz".Toshkent.: "O'zbekiston".
- 3.Sh.M.Mirziyoyev "Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug'", hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi".Toshkent.: "O'zbekiston" 2019